

Budjet tashkilotlariga neft mahsulotlarini yetkazib berish haqidagi

TBT/23- sonli SHARTNOMA

2022 yil 14-yanvar

Termiz shaxri

Keyingi o'rinda «Yetkazib beruvchi» deb ataluvchi «Termiz neft bazasi» M.Ch.J. nomidan nizom asosida faoliyati yurituvchi direktori G. Norqobilov bir tomondan va «Iste'molchi» deb ataluvchi VSSB MAXSUS VA TIBBIY TEZ YORDAM AVTOXUJALIGI nomidan nizom asosida faoliyat yurituvchi M. Boboraxmatov ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

I. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. «Etказib beruvchi», «Iste'molchi»ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini yetkazib berish, «Iste'molchi» esa yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o'z zimmalariga oladilar.

1.2. Tomonlar o'zaro kelishilgan holda ma'lum davr (oylik, choraklik yoki yillik davr) uchun yetkazib berilishi ko'zda tutilgan neft mahsulotlari turlari, assortimentlari va miqdorlarini ushbu shartnomaning 1- ilovasidagi spetsifikatsiya orqali belgilab oladilar.

Spetsifikatsiya ma'lumotlaridan tomonlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishda, jumladan «Iste'molchi» buyurtmalarni shakllantirishda, «Etказib beruvchi» esa neft mahsulotlarining zarur zahirasini oldindan yaratishni rejalashtirishda foydalaniladilar.

2. NEFT MAHSULOTLARI NARXLARI VA HISOB – KITOB TARTIBI

2.1. Shartnomaning taxminiy umumiy summasi QOS bilan 286 419 082 (yetkilov) so'mni tashkil etadi. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxlari «Yetkazib beruvchi» tomonidan Budjet tashkilotlari, paxta xomashyosi va g'alla ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari va paxta xo'jaliklik klasterlari, «O'zbekiston temir yo'llari» AJ, «Toshshaxartransxizmat» AJ, maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha davlat korxonalariga dizel yoqilg'isi (shu jumladan EKO markali dizel yoqilg'isi) o'tgan haftada gi birja savdolari natijalariga ko'ra shakllangan o'rtacha birja narxlarida shakllanadi. Boshqa neft mahsulotlari esa neft baza tomonidan sotib olish va transportirovka xarajatlari hamda neft bazaning ustamasidan shakllangan narxlarda shakllanadi.

2.3. «Etказib beruvchi», «Iste'molchi»ning buyurtmasi olingan zahoti yetkazib berilishi so'ralgan neft mahsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlarini unga ma'lum qiladi. «Iste'molchi» mazkur narxlar asosida buyurtmadagi neft mahsulotlari partiyasining tegishli hajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarini 5 kun ichida amalga oshiradi. Aks holda «Etказib beruvchi» neft mahsulotlari uchun yangi joriy narxlarini qo'llashi mumkin.

2.4. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlari uchun to'lovlar «Etказib beruvchi»ning bankdagi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

8.2. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid kelaotgan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni xodim o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir yetishi yoki sodir yetmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

8.3. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan har qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda iktisodiy sudlar orqali hal etiladi.

8.4. Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, har ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.

8.5. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng xukukiy kuchga ega.

8.6. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolangan va agar «Iste'molchi» byudjet tashkiloti bo'lsa, bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining xududiy g'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr gacha amal qiladi.

9. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

«TAMINOTCHI»

«Termiz neft bazasi» M.Ch.J.

Termiz shaxri

Toshkent sh. «UZSANOATKURILISHBANK» ATB

VSSB MAXSUS VA TIBBIY TEZ YORDAM AVTOXUJALIGI

STIR 200473847
STIR 22604000000556749701

Markaziy bank
Bank BIR 33402000300100001010
Bank MFO 300014 STIR: 206993243

M. Boboraxmatov

M. O. ... degi

TBT/23 - sonli shartnomaga ilova

SPETSIFIKASIYA

neft mahsulotini Dav. STTSh	O'lovchov birligi	Narxi	Yillik miqdori	Etказib berisi summasi	QOS	Summasi
AI-80	tn.	10492864	73	102596400		286 419 082
AI-91	tn.					
AI-92	tn.					
AI-95	tn.					
D/YO	tn.					
D/YO	tn.					

Termiz neft bazasi
«Etказib beruvchi»
neft mahsulotlari narxlarini birja savdolari natijalariga ko'ra o'zgaradi.

3. YETKAZIB BERISH TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft mahsulotlari «Etkazib beruvchi»ning omboridan yoki unga qarashi filiallardan «Iste'molchi»ning buyurtmasi va unda yetkazilishi so'ralgan neft mahsulotlari uchun to'lovlar kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilganda yetkazib beriladi.

3.2. Neft mahsulotlari «Iste'molchi»ga «Etkazib beruvchi»ning maxsus avtotransportida belgilangan tartibda yetkazib beriladi. Neft mahsulotlarini shuningdek «Iste'molchi»tomonidan barcha yongin va texnika xavfsizlik talablariga rioya qilish bo'yicha mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan holda o'ziga tegishli yoki ijaraga olingan maxsus transport vositasida olib ketilishi mumkin va bunday holatda tashish harajatlari qayta ko'rib chiqilmaydi.

3.3. Neft mahsulotlari omboriga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sistemalari 1510-84 Davlat standart talabiga javob berishi shart. Aks holda avtotransport vositalari ombor hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtotransport vositalarining bo'sh ketishi uchun «Etkazib beruvchi» javobgar bo'lmaydi.

3.4. Neft mahsulotlari qo'yilgan avtotistemalar («Iste'molchi»ning avtotransportida olib ketish xolatlari bundan mustasno) «Iste'molchi»ning talabiga binoan «Etkazib beruvchi»ning yoki uning bo'limalari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjatlarga (2417-85 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi.

3.5. Neft mahsulotlari ushbu shartnomaning 3.1. bandida keltirilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 2 kun ichida yetkazib beriladi. Neftni qayta ishlash zavodlaridan yetkazib berilmasligi yoki temir yo'l tashkilotlarining aybi bilan yuzaga kelgan neft mahsulotlari ta'minotidagi uzilish holatlarida «Etkazib beruvchi» tomonidan «Iste'molchi»ni bu haqda habardor qilingan holda tomonlar yetkazib berishning boshqa muddatini o'zaro kelishib olishlari mumkin.

4. NEFT MAHSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Neft mahsulotlari miqdor buyicha qabul qilish "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini miqdor jixatdan qabul qilish tartibi to'g'risida"gi P-6-sonli va sifati bo'yicha esa "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini sifat jixatdan qabul qilish tartibi to'g'risida"gi P-7-sonli yuriqnomalarda xamda boshqa me'yoriy xujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi.

4.2. «Iste'molchi»ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtda mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini yetkazib berganlik to'g'risidagi tegishli hujjatlar «Etkazib beruvchi»ning omborida yoki unga qarashi filiallarda, ayrim hollarda «Iste'molchi»ning hududida rasmiylashtiriladi va ularni «Iste'molchi» tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchnoma asosida vakili imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilish oladi. Egalik xuquqi, tasodifiy nobud bo'lishi, neft mahsulotlariga ziyon yetish xavfi «Etkazib beruvchi»ombori yoki filiali xududidan chiqqan vaqtdan boshlab «Iste'molchi»ga o'tadi.

5. NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI

5.1. «Etkazib beruvchi» «Iste'molchi» ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft mahsulotlarini yetkazib berishni kafolatlaydi. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-son Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu neft mahsulotlarini avtotransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan xujjatlarda qayd etilishi lozim.

5.2. Neft mahsulotlarini olishda «Iste'molchi» ularning sifati, shuningdek sifati pasportini talab qilish xuquqiga ega.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi to'g'risida»gi qonuniga binoan javobgar bo'ladi.

6.2. «Etkazib beruvchi» neft mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun vaqtida yetkazilmagan neft mahsulotlari summasining 0,1 foizi, lekin 10 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

6.3. «Yetkazib beruvchi» neft mahsulotlari sifati o'z hisobidan tiklab berish bilan bir qatorda «Iste'molchi»ga yetkazib berilgan sifati lozim darajada bo'lmagan neft mahsuloti qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. «Iste'molchi» belgilangan muddatda olinmagan va yetkazib berilgan neft mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun «Etkazib beruvchi»ga olinmagan mahsulot umumiy qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi va ta'minotchi olinmagan mahsulot uchun mahsulotning to'lik qiymatini undirish huquqiga ega.

6.5. «Iste'molchi» o'zining hududiga olib kelingan neft mahsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik xavfsizligi talab va me'yori to'liq amal qilinishiga to'liq javobgardir.

6.6. «Iste'molchi» yetkazib berilgan neft mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va xavfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

7. FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Tomonlardan birortasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major holatlar, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulotida va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar)) sabab bo'lganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

8. KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH VA BOSHQA SHARTLAR

8.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lmaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.